XORAZM VILOYATI XONQA TUMANI HOKIMINING QARORI

Xonqa shaharchasi, Xalqlar do‘stligi ko‘chasi, 30-uy

2024 - yil 10 - iyun 226-12-175-Q/24 Xonqa tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29- martda “Atmosfera havosiga transport vositalarining salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 166-sonli qarori yuzasidan viloyat hokimining 2024-yil 9-apreldagi 152-12-0Q/24-sonli qarorining ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-martda “Atmosfera havosiga transport vositalarining salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 166-sonli qarori yuzasidan viloyat hokimining 2024-yil 9-apreldagi 152-12-0Q/24-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida

Qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-martda “Atmosfera havosiga transport vositalarining salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 166-sonli qarori yuzasidan viloyat hokimining 2024-yil 9-apreldagi 152-12-0Q/24-sonli qarorining ijrosi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining ushbu qarori bilan:

`Shahar (tuman) hokimliklariga viloyat ichki ishlar boshqarmasi bilan birgalikda bir oy muddatda Davlat yo‘l harakati xizmati ro‘yxatlash bo‘linmalarini takomillashtirish, shu jumladan, ularning quvvatlarini oshirish uchun bo‘sh turgan yer uchastkalarini ajratish bo‘yicha asoslantirilgan takliflarni kiritsin.

Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (K.Ro‘zmetov) manfaatdor boshqarma va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan idoraviy hujjatlarini ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlash topshirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (K.Ro‘zmetov) manfaatdor boshqarma va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan idoraviy hujjatlarini ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlash topshirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari N.Kurbanov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **M.Davlatov**